

JAMOAVIY MUHITNING BOLA SHAXSINI SHAKLLANISHIGA TA'SIRI.

Norqo'ziyeva Manzura

JDPU, p.f.d.(PhD)

Mahmudova Kumush

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirish va unga tasir etuvchi omillar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: bola shaxsi, individual, rivojlanish, jamoa, irsiyat, muhit, intellektual salohiyat ijtimoiylashuv.

Аннотация: В статье рассматривается формирование личности дошкольника и факторы, влияющие на него.

Ключевые слова: личность ребенка, личность, развитие, сообщество, наследственность, среда, интеллектуальный потенциал, социализация.

Abstract: This article discusses the formation of the personality of a preschool child and the factors influencing it.


Keywords: child's personality, individual, development, community, heredity, environment, intellectual potential, socialization.

Barchamizga ma'lumki, bola shaxning rivojlanishi – juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan [tabiiy va ijtimoiy muhit](#), shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi. Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat [turlaridan biri asosiysi](#), etakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi. Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bili shva o'zlashtirishda yetakchi vazifani bajaradi.

Shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi. Bugungi maktab yoshidagi bolalardan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar hamda sinfdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan ijobiy hamkorlik aloqalarini o'rnatish talab etiladi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo'yayotganida nechog'li bilimga egaligi emas, balki

uning yangi bilimlarni egallashga tayyorgarligi, atrof- olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.

Bola shaxsiga ta'sir etuvchi omillar – muhit, jamoa va irsiyat bo'lishiga qaramay, bolalar jamoasi eng muhimi sanaladi. Jamoaning shaxsiga ta'siri samaradorligi shaxsning jamoadagi kayfiyati bilan belgilanadi. 1-rasm



1-rasm. Jamoada shaxsning rivojlanishiga ta'sirinig asosiy omillari.

Bularning hammasi bola shaxsi rivojlanishi uning hayotidagi ilk bosqichlaridanoq majburiy sharti hisoblanadi. Bolaning dastlabki ehtiyojlaridan biri bu muloqatga bo'lgan ehtiyojdir. Bu bola hayotining birinchi oyi oxiri va ikkinchi oyi boshlarida odam yuzi yaqinlashganda uning jonlanishi tarzda hosil bo'ladi.

Shaxsning o'zini o'zi baholashi shaxs kamolati muhim ko'rsatgichdir. Odamning o'ziga o'zi qanday munosabatda bo'lgan unga atrofdagilarning qanday munosabatdabo'lishiga bog'liqdir .O'zini o'zi baholash, o'zini o'zi jamoadagi o'z faoliyati mavqiyining uning boshqa a'zolariga o'zining munosabatlarni baholashni o'z ichiga oladi. O'zini –o'zi baholash shaxsning halqiluvchi xususiyati uning o'zagidir.

Shaxsning faolligi, uning jamoa faoliyatiga ishtiroki, uning o'zini o'zi boshqarishdagi intilishi, o'zini o'zi baholash darajasiga bog'liqdir. O'zi haqida keraksiz, hech nimaga yaramaydigan subekt deb o'ylaydigan odam o'ztaqdirini yaxshilash uchun istar istamas kuch g'ayrat sarflaydi. Aksincha o'zlarining yuqori baholaydigan odamlar ko'pincha juda qattiq

ishlashga moyildirlar. Ular yaxshi ishlamaslikni o'zlariga munosib emas deb hisoblaydilar.

To'g'ri o'zini o'zi baholash dastlabki indevet holati natijalari ta'sirida shakllanadi. Lekin hamma gap shundaki bu natijalarni har doim atrofdagilar baholaydilar. Shuning uchun atrofdagilarning bahosi o'zini o'zi baholashni belgilab beradi. O'ziga bo'lgan tuyg'u boshqalarning unga bildirgan fikri tufayli shakllanadi va mustahkamlanadi. Agar atrofdagilar bolalarga har doim hurmat bilan munosabatda bo'lishsa, u ham o'zini haqiqiy hurmatga sazovor hisoblay boshlaydi. Aksincha bolaga muntazam iltifotsizlik ko'rsatilsa, asosiy e'tibor uning kamchiliklariga qaratilsa, unda uning o'zi haqida hurmatga sazovor emas, degan xulosa chiqarishdan o'zga imkon qolmaydi. Bunga nisbatan turlicha holat ro'y berishi mumkin: loqaytlik, beodoblik, tajavvuskorlik va boshqalar. O'zini o'zi baholash shakllanib borgan sari, ular atrofdagilarning fikrida va hatto faoliyatining aniq natijalaridan toboro mustaqil bo'la boshlaydi. Barqaror o'zini o'zi baholash shakllanib bo'lishi bilan u o'zini o'zi mustahkamlash tamoiliga egabo'ladi. U o'zini o'zi yuqori baholashga ham o'zini o'zi past baholashga ham ta'luqlidir. Masalan: ota – ona yoki ulardan birining kamsituvchi munosabati boshqalar ishtirokidagi faoliyat oldida, jumladan imtihon oldida qat'iy qo'rquvni shakllantirishi mumkin. U o'quvchi imtihonlarni muvofiqiyatli topshirganda ham uning o'ziga o'zi pas baho berishini o'zgartirmaydi. Uning boshida quyidagi fikr shakllanadi. Odamning o'zini o'zi baholash darajasi u hammaning o'rtasida bildiradigan fikr ham u samimiy ravishda o'zi haqida nimani o'ylashi bilan ham belgilanmaydi, balki u muntazam ravishda nisbatan qanday ravishda harakat qilishi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, bola shaxsini shakllanishida salbiy omillarga ega bo'gan jamoa ta'sir etsa , ushbu jamoaning qadriyatlari va normalarini u o'zining shaxsiy qadriyatlari va normalari sifatida idrok etadi , uning faol mavqei ahamiyatli va jozibali bo'lib qoladi. Mana shuning uchun ham jamoaning ruhiy muhiti –bolaning ruhiy sog'lom va ma'naviy faol shaxsning shakllantirishning hal qiluvchi shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. M. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. O'zbekiston -2019y
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida 2020-yil 22-dekabr, 802-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, T- 2022 y.
4. Abramova. G.S. "Prakticheskaya psixologiya". M.: -2001.
5. Adizova.T.M. "Psixokorreksiya" T.: "Iqtisod-moliya" 2006. (58b)
6. G'oziyev E. . Umumiy psixologiya. T.: "Universitet" 2002 y.
7. Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
8. D.R. Babayeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: "Barkamol avlod fayz" 2018 y. Darslik.
9. Yo'ldoshev J. "Ta'lim yangilanish yo'lida" T.: O`qituvchi. 2000 yil